



Mehriniso KENJAYEVA

O'zMPU, xorijiy filologiya (koreys tili) fakulteti talabasi

E-mail: mirandakim269@gmail.com.

F.f.n, dotsent, U.Yo 'ldoshev taqrizi asosida

UMUMINSONIY QADRIYATLAR TIZIMIDA KOREYS TILI VA ADABIYOTINING O'RNI VA AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada Koreys tili va adabiyotining umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi o'rni va ahamiyati falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Maqolada an'anaviy koreya adabiyotiga hissa qo'shgan shoirlar, ya'ni Kim Si-sup (김시습), Yun Seon-do (윤선도), zamonaviy shoirlar Yi Chong-jun (이청준), Kim Sowol (김소월) kabi adiblarning ijodi tahlil etilgan. Shuningdek, inson va taqdir, jamiyat va shaxs, ma'naviyat va erkinlik kabi masalalar konfutsiychilik, buddizm va daosizm g'oyalari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Koreys tili, koreys adabiyoti, umuminsoniy qadriyatlar, falsafa, konfutsiychilik, buddizm, daosizm, ma'naviyat, shaxs va jamiyat, inson taqdiri, klassik adabiyot, sidjo she'riyati, inson va tabiat uyg'unligi.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ В СИСТЕМЕ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация

В данной статье с философской точки зрения анализируется роль и значение корейского языка и литературы в системе общечеловеческих ценностей. В статье представлен анализ творчества поэтов, внесших вклад в традиционную корейскую литературу, таких как Kim Si-sup (김시습), Yun Seon-do (윤선도), а также современных поэтов, таких как Yi Chong-jun (이청준), и Kim Sowol (김소월). Особое внимание уделяется темам человеческой судьбы, взаимоотношения личности и общества, духовности и свободы. Эти темы раскрываются через призму идей конфуцианства, буддизма и даосизма на основе анализа литературных произведений.

Ключевые слова: Корейский язык, корейская литература, общечеловеческие ценности, философия, конфуцианство, буддизм, даосизм, духовность, личность и общество, человеческая судьба, классическая литература, поэзия сиджо, гармония человека и природы.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF KOREAN LANGUAGE AND LITERATURE IN THE SYSTEM OF UNIVERSAL VALUES

Annotation

This article examines the role and significance of the Korean language and literature within the system of universal human values from a philosophical perspective. The study analyzes the works of poets who contributed to traditional Korean literature, including Kim Si-sup and Yun Seon-do, as well as modern poets such as Yi Chong-jun and Kim Sowol. Special attention is given to themes such as human destiny, the relationship between society and the individual, spirituality, and freedom, which are explored through the philosophical ideas of Confucianism, Buddhism, and Taoism.

Key words: Korean language, Korean literature, universal human values, philosophy, Confucianism, Buddhism, Taoism, spirituality, individual and society, human destiny, classical literature, sijo poetry, harmony between human and nature.

Kirish. Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlardan mazmun jihatidan chuqur va keng bo'lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar jahondagi barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlariga muvofiq keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, jahondagi har bir xalq va millat o'zidan boshqa xalq va millatlardan, umuman jahon sivilizatsiyasidan mutlaqo ajralgan alohida madaniyatga ega emas. Har qanday millat boshqa xalqlarning eng progressiv madaniy-ma'rifiy yutuqlaridan foydalanmay turib jahon andozalariga mos ravishda rivojlana olmaydi. Shu sababli barcha xalqlarning ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy - ma'rifiy rivojlanishi, tarixan bir - biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Markaziy Osiyo azal-azaldan ilm-fan va madaniyatning, adabiyot va san'atning markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu o'lkada yetishib chiqqan mutafakkirlar jahon ilm-fani va madaniyatini o'z kashfiyotlari va o'lmas asarlari bilan ijodiy boyitib, yuqori cho'qqiga ko'tardilar, uning keyingi taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdilar. Xalqimizning rang-barang va boy madaniyati jahon xalqlari madaniyatining ajralmas qismidir.

Ko'p asrlar davomida shakllanib, mazkur xalqning ma'naviy boyligini, uning urf-odatlari, an'analarini

mu'jassamlashtirgan ma'naviyat ayni vaqtda umuminsoniy qadriyatlarining tarkibiy qismini tashkil etadi va shu tariqa u jahondagi barcha xalqlarning ma'naviy boyligi ham bo'lib hisoblanadi. Shu ma'noda bugungi kunda O'zbekiston prezidenti Sh. M. Mirziyoev tomonidan ilgari surilayotgan ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy islohatlar doirasida koreys tili, adabiyoti va madaniyatiga bo'lgan qiziqishni yoshlar e'tiboriga havola etish, ikki xalq o'rtasidagi ijtimoiy - iqtisodiy hamkorlikni taraqqiy etishiga ijobiy ta'sir etadi. Prezident Sh. M. Mirziyoev, xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti - soati keldi, deb ta'kidlaydi. O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarida xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda.

.... Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim,- dedi Shavkat Mirziyoev[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Darhaqiqat, shu ma'noda ham chet tilini o'qitishning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish maqsadga muvofiqdir. Koreya madaniyati va adabiyoti ming yillar davomida Sharq falsafasi ta'sirida shakllanib kelgan. Konfutsiychilik, buddizm va daosizm g'oyalari Koreyalik yozuvchi va shoirlarning dunyoqarashida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Adabiyot orqali ular insonning ichki olami, jamiyatdagi o'rni, axloqiy mas'uliyati va ma'naviy kamoloti masalalarini falsafiy nuqtai nazardan yoritganlar. Shu bois koreys adabiyoti nafaqat badiiy, balki chuqur falsafiy ahamiyatga ham ega. Kim Si-sup (김시습), 1435–1493) – koreys mumtoz adabiyotining yirik namoyandaligidan biri, Choson sulolasi davrida yashagan yozuvchi, faylasuf va buddaviy ulamodir. Uning ijodida konfutsiychilik, buddaviylik va daosizm g'oyalari chuqur uyg'unlashgan.

Kim Si-sup ijodidagi asosiy asarlaridan biri (금오신화, 金鰲新話) «Kim O sinxva» dir, ya'ni “Oltin toshbaqa haqida yangi qissalar” asaridir. Bu asar Kim Si-supning eng mashhur va eng muhim ijod namunasidir hisoblanadi. U beshta qissadan iborat bo'lib, koreys adabiyotidagi ilk fantastik-qissaviy to'plamlardan biri sanaladi. Asar mazmunida hayot va o'lim munosabati, ruhlar va inson olami, muhabbatning abadiyligi, dunyoviy hayotning o'tkinchiligi kabi muammolar yoritilgan. Ushbu asar, Xitoyning «chuansi» an'analarini ta'sirida yozilgan bo'lib, real hayot va mistik olam uyg'unlashgan mazmunda tahlil qilingan. Kim Si-sup bu asari bilan koreys fantastik nasriga asos solgan. (만복사저포기, 萬福寺禱蒲記) «Manboksa ibodatxonasida chopo (qadimiy koreys aqliy o'yini, shaxmatga yaqin) o'ynagan kishi haqida qissa» asarida tirik inson bilan vafot etgan ayol ruhi o'rtasidagi muhabbat tasvirlanadi. Asarda inson tuyg'ulari jismoniy o'limdan ham ustun ekani ko'rsatiladi.

Adibning «Chxve Yun chon» (최윤전, 崔雲傳) nomli qissasida, yozuvchi inson taqdirini falsafiy tahlil qilgan holda ma'naviy kamolot masalalarini ko'taradi. Asarda borliqqa nisbatan buddaviy dunyoqarash kuchli seziladi. Shuningdek, yozuvchining she'riy va falsafiy asarlarida tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik, dunyoviy mansabdandan voz kechish g'oyasi, ruhiy poklanish va ma'rifatga intilish kabi g'oyalari aks ettiriladi, she'riyat esa lirik, falsafiy, ramziy mazmunga boy bo'lib, uning ichki ruhiy izlanishlarini aks ettiradi.

Kim Si-supning asarlari nafaqat adabiy, balki ma'naviy-falsafiy qimmatga ham egadir. Chunki, shoir insonning haqiqiy baxti moddiy dunyo emas, balki ichki ma'naviy borliq, ruhiy olam serqirraligi ekanini ko'rsatib beradi.

Yun Seon-do (윤선도, 1587–1671) koreys adabiyotidagi mashhur shoir va mutafakkir. Choson sulolasi davrida yashagan va koreys klassik poeziyasining yirik namoyandasi hisoblanadi. Yun Seon-doning taniqli asarlari tarkibiga «Eobusasisa» (어부사시사) — “Baliqchining to'rt fasli”, «Sansusok» (산수속) — “Tog' va suv haqida qo'shiqlar”, «Chxonson pyolgok» (청성별곡) — “Chxonson qo'shiqlari”, 오우가 (Ouga) — «Besh do'st qo'shig'i», 만흥 (Manheung) — «Farog'at qo'shiqlari», 금쇄동기 (Geumsaedonggi) — «Gimsedong kundaligi» kabilar kiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yun Seon-do «Eobusasisa» (어부사시사) — “Baliqchining to'rt fasli” asari sijo (koreys klassik she'riyati) janrida yozilgan. Bu asar Yun Seon-do ning eng mashhur asari hisoblanadi. Asarda baliqchining hayoti orqali insonning tabiat bilan uyg'un, sodda va xotirjam yashash g'oyasi ifodalangan. Muallif davlat xizmatidan chetlashib, falsafiy sokinlikni tanlagan inson obrazini yaratadi.

Asarda Konfutsiylik va daosizm g'oyalari kuchli seziladi. Shuningdek, tabiat insonni ma'naviy poklaydi, degan fikr yetakchi o'rin tutadi. «Sansusok» (산수속) — “Tog' va suv haqida qo'shiqlar” asari ham sijo shaklida yozilgan. Bu she'rlarda tog'lar,

daryolar, tabiat manzaralari tasvirlanadi. Yun Seon-do tabiatni faqat go'zallik sifatida emas, balki inson ruhiyatining aksi sifatida tasvirlaydi. Uning asarlarida orom, sukut va hayotiy tafakkur ustun.

«Chxonson pyolgok» (청성별곡) — “Chxonson qo'shiqlari” asarida muallif o'zining siyosiy hayotdan chetlatilishi, yakkalik va ichki kechinmalarini ifodalaydi. Asar mazmunida adolatsizlikka qarshi ichki norozilik bor, ammo u ochiq isyon shaklida emas, balki falsafiy mushohada orqali berilgan.

Yun Seon-doning publitsistik risolalarida konfutsiychilik axloqi, davlat boshqaruvi va inson kamoloti haqida falsafiy talqinlar berilgan.

Bu asarlarda u ideal amaldor obrazini, halollik va ma'naviy poklikni targ'ib qiladi. Uning qarashlarida shaxsiy manfaatdan voz kechish, jamiyat oldida adolatli va mas'uliyatli bo'lish g'oyasi ustun.

Xulosa qilib aytganda, Yun Seon-do ijodining asosiy mavzusi: tabiat va inson borlig'ining uyg'unligi, ma'naviy poklik, siyosiy adolat va ichki erkinlik, axloqiy sokinlik va falsafiy hayot tarzi targ'ib qilinadi.

Shoir koreys klassik poeziyasida sidjo janrini mukammallashtirgan mashhur adib bo'lib, u koreys milliy adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan.

Agar, Kim Si-sup (김시습), Yun Seon-do (윤선도) kabi shoirlar an'anaviy Koreya adabiyoti taraqqiyotiga hissa qo'shgan bo'lsalar, zamonaviy Koreya adabiyotiga esa Yi Chong-jun (이청준), Kim Sowol (김소월) kabi shoir va yozuvchilar samarali

hissa qo'shganlar. Yi Chong-jun (이청준, 1939–2008). Yi Chong-jun — XX asr ikkinchi yarmida yashab ijod etgan, Koreya adabiyotining yirik namoyandaligidan biridir. Ijodkor o'z asarlarida inson ruhiyatini, jamiyat va shaxs o'rtasidagi ziddiyatlarni, an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi to'qnashuvni chuqur falsafiy ruhda yoritishi bilan ajralib turadi.

Asarlarining aksariyat mavzulari jamiyat va inson o'rtasidagi ziddiyatli muammolar doirasiga tegishlidir. Yozuvchi qahramonlari ko'pincha jamiyat qoidalariga moslasha olmaydigan, ruhiy ichki iztirobda yashayotgan shaxslardir. Bu qahramonlar kechinmalari orqali muallif jamiyatning inson erkinligiga bosimi masalasini ochib beradi. Shuningdek, badiiy obrazlarining ruhiy izlanishi va ma'naviy iztirobini yoritish jarayonida ichki monolog, psixologik tahlildan o'rinni foydalanadi. Yi Chong-junning asar qahramonlari o'z “men”ini anglashga, hayot ma'nosini topishga o'rinadi.

Ayniqsa “Sopxyonje” (서편제) kabi asarlarda milliy san'at, an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy hayot o'rtasidagi keskin ziddiyat aks etadi. Ijodkor “Sopxyonje” asarida milliy musiqa — pxansori orqali inson taqdiri va san'atga sadoqat g'oyasi ifodalangan. Qahramonlar san'at yo'lida shaxsiy baxtdan voz kechishga majbur bo'ladi. Bu orqali muallif san'atning qurbonlik talab etuvchi tabiatini ko'rsatadi.

“Sizning jannatingiz” (당신들의 천국) asarida “jannat” tushunchasi tanqidiy talqin qilinadi. Ma'muriy kuch bilan yaratilgan “baxtli jamiyat” aslida inson huquqlarini cheklashi mumkinligi fosh etiladi.

Xulosa, Yi Chong-jun asarlari koreys jamiyatining tarixiy va ma'naviy muammolarini umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'taradi. U insonning ichki dunyosini, erkinlikka intilishini va qalb iztirobini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlagan yozuvchi sifatida koreys adabiyotida muhim o'rin tutadi.

Tahlil va natijalar. Yozuvchi fikricha, haqiqat har doim so'z bilan emas, ba'zan sukunat orqali ifodalangan. Bu g'oya ekzistensial falsafaga yaqin bo'lib, insonning ichki mohiyatini ochib beradi. Kim Sowol (김소월, 1902–1934) — XX asr boshlarida yashagan eng mashhur koreys lirik shoirlaridan biri. Yoshligidan adabiyotga qiziqqan, koreys xalq qo'shiqlari va an'anaviy she'riyatdan ilhom olgan. Kim Sowol koreys lirik she'riyatini yangi bosqichga olib chiqqan shoir hisoblanadi.

Ijodkorning qisqa umri va og'ir taqdiri uning she'riyatida chuqur iz qoldirgan. Ijodkorning asosiy asarlariga «Azaliya guli» (진달래꽃), «Ona, men uyga qaytmoqchiman» (어머니, 어머니), «Tog' gullari» (산유화), «Qushlar uchib ketdi» (조혼 — Ruhni chorlash), «Qarg'a va bulbul» kabi asarlarni kiritish mumkin.

Uning eng mashhur she'ri — «Azaliya guli» (진달래꽃) bo'lib, bu asar koreys adabiyotining durdonalaridan biri sanaladi. Azaliya guli koreys madaniyatida bahor, nafasot va sadoqat ramzi hisoblanadi.

Shoir qalamiga xos asosiy xususiyat, uslubining coddaligida, musiqiy ohangni aks ettiruvchi tilida, hamda xalq qo'shiqlariga xos mazmunda ifodalanishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa asar mazmunida sevgi, ayriliq, sog'inch, g'am, inson qalbining chuqur va nozik hissiyotlarini yoritilishi, o'zgacha falsafaga egadir. She'rda tashqi tomondan xotirjamlik sezilsada, ichki dramatism juda kuchli. Qahramon ko'z yosh to'kmaslikka harakat qiladi, ammo bu o'zini tiyish orqali ifodalangan chuqur

dardni ko'rsatadi. Bu koreys an'anaviy hissiyoti — sabr va ichki matonatga xos tuyg'udir.

Shuningdek, Kim Sowol bu asarda inson qalbidagi og'riqni baland ovozsiz, ammo ta'sirli tarzda ifodalashi bilan koreys milliy ruhini, xalq dardi va iztirobini sodda, lekin juda ta'sirli shaklda ifoda etgandir. Bu esa buddizmdagi azobni anglash orqali kamolotga yetish g'oyasiga yaqin.

Shu jihati bilan she'r nafaqat koreys adabiyotida, balki jahon lirikasida ham alohida o'rin tutadi.

Koreyada uning she'rlari hozirgacha maktab va universitetlarda o'rganiladi, qo'shiq qilib kuylanadi.

Xulosa va takliflar. Koreya yozuvchi va shoirlarining adabiyot sohasidagi ijodi, umuminsoniy madaniyatning falsafiy asosini tashkil etadi. Ularning asarlarida: inson va taqdir, jamiyat va shaxs, ma'naviyat va erkinlik muammolari chuqur falsafiy tahlil qilingan.

Koreya adabiyoti Sharq falsafasining insonparvarlik, axloq va ichki kamolot g'oyalarini o'zida mujassam etgan holda jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Shu bois u jahon madaniyatida alohida o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR

1. Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. <https://president.uz/uz/lists/view/4327>
2. Lee Ki-Moon va S. Robert Ramsey. Koreys tili tarixi. 2011. "Cambridge University Press" nashriyoti. 348 bet.
3. Koreys tilining izohli grammatikasi (A Reference Grammar of Korean). 1992. "Charles E. Tuttle Company" nashriyoti. 1032 bet.
4. Saydazimova U. Koreys adabiyoti tarixi. Toshkent. 2014.
5. "Istiqlol" nashriyoti, 148 bet.
6. Ziyamuhamedov J.T. Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. 2014. "Istiqlol" nashriyoti, Toshkent. 520 bet.